



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASINING
QARORI**

Oliy ta'lif muassasalari talaba-yoshlari o'rtaida "Ma'rifat maydoni", "Yurtim qadriyatlar" ko'rik-tanlovleri hamda "Mening O'zbekistonim" videorolik tanlovi o'tkazish bo'yicha nizomlarni tasdiqlash to'g'risida

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-yanvardagi 36-sod qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining 11-bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, talaba-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish ularni ma'naviy kamolotga yo'naltirish, iqtidorli yoshlarga o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ucshun sharoit yaratish, atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng targ'ib qilish va chuqur o'rganish, yoshlarni yuksak axloq va kuchli bilim sohibi hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlarni milliy va umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy va ma'naviy qadriyatlarmiz, an'ana, urf-odat, milliy san'atimiz bilan yaqindan tanishtirish maqsadida Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qaror qiladi:

1. "**Ma'rifat maydoni**", "**Yurtim qadriyatlar**" ko'rik-tanlovleri hamda "**Mening O'zbekistonim**" videorolik tanlovi (keyingi o'rinnarda – Tanlov) 2024/2025 o'quv yilidan boshlab doimiy o'tkazilib borilsin.

2. Quyidagilar:

"Ma'rifat maydoni", "Yurtim qadriyatlar" ko'rik-tanlovleri hamda "Mening O'zbekistonim" videorolik tanlovi o'tkazish bo'yicha Tashkiliy ishchi guruh tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

"Ma'rifat maydoni" ko'rik-tanlovini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

"Yurtim qadriyatlar" ko'rik-tanlovini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

"Mening O'zbekistonim" videorolik tanlovi o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom 4-ilovaga muvofiq;

“Ma’rifat maydoni”, “Yurtim qadriyatlar” ko‘rik-tanlovlari hamda “Mening O‘zbekistonim” videorolik tanloving chora-tadbirlar rejasi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga quyidagi vazifalar yuklansin:

Tanlovlarning barcha bosqichlari o‘tkaziladigan joy va muddatlarini belgilash, shuningdek, nizom talablari asosida yuqori saviyada o‘tkazilishini tashkil etish va muvofiqlashtirish;

Tanloving bosqichlarini o‘tkazish jarayonida xavfsizlikni ta’minlash yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

Tanloving respublika yakuniy bosqichida faol ishtirok etgan va g‘olib bo‘lgan jamoalarni diplom hamda belgilangan pul mukofotlari bilan taqdirlash;

Tanlovda g‘olib bo‘lgan jamoalar yuzasidan ma’lumotlarni 10 kun muddatda Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi (R.Xudayberganov) tomonidan Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasiga kiritish.

3. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga:

Tanlovlarning barcha bosqichlarini o‘tkazish bo‘yicha Tashkiliy hamda hududiy ishchi guruhrar, shuningdek, Hakamlar hay’ati tarkibiga Markaziy apparat va hududiy bo‘limlardan vakillar ajratish;

Tanloving yakuniy bosqichida ishtirok etgan jamoalarni kitoblar to‘plami bilan taqdirlashni tashkil etish vazifalari yuklansin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari S.Buzrukxonov, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining o‘rinbosari B.Ergashev zimmalariga yuklatilsin.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vaziri

K. Sharipov



Toshkent sh.

2024-yil 9 - 10
38-919
nch-

O‘zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi raisi

S. Sayyid



Toshkent sh.

2024-yil 9 - 10
01-03/855 son

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining
2024-yil “9” - oktabrdagi -son qaroriga 38-919
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining
2024-yil “5” - oktabrdagi -son qaroriga
1-ilova DP-D31857

**“Ma’rifat maydoni”, “Yurtim qadriyatları” ko‘rik-tanlovları hamda “Mening
O‘zbekistonim” videorolik tanlovini o‘tkazish bo‘yicha
Tashkiliy ishchi guruh
TARKIBI**

1. Buzrukxonov Sarvarxon – Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Munavarxonovich o‘rinbosari, *Tashkiliy ishchi guruh raisi*
2. Kasimov Nodir
Ulug‘ovich – Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
boshqarma boshlig‘i, *Tashkiliy ishchi guruh
raisi o‘rinbosari*
3. Xudayberganov
Ravshonbek Xudaybergan – Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning
ijtimoiy faolligini oshirish markazi direktori
o‘g‘li
4. Botirjon Ergashev – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
raisi o‘rinbosari
5. Raxmonov Shohzod
Husan o‘g‘li – Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning
ijtimoiy faolligini oshirish markazi bo‘lim
boshlig‘i
6. Maxmudov Axmadxon – Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning
ijtimoiy faolligini oshirish markazi bo‘limi
bosh mutaxassisi, *Tashkiliy qo‘mita kotibi*
Muhammadsaid o‘g‘li

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligining
2024-yil "9" - oktabrdagi *38-919* -son qaroriga
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining
2024-yil "9" - oktabrdagi *38-919* -son qaroriga
2-ilova *01-03/857*

**Oliy ta'lif muassasalari talaba-yoshlari o'rtaida o'tkaziladigan
"Ma'rifat maydoni" ko'rik-tanlovi
NIZOMI**

I.Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom oliy ta'lif muassasalarida tahsil oluvchi talaba-yoshlar o'rtaida "**Ma'rifat maydoni**" ko'rik-tanlovi (*keyingi o'rinnlarda Tanlov deb yuritiladi*) o'tkazish tartibini belgilaydi.

II. Tanlovning maqsad va vazifalari

2. Tanlov mamlakatimizda amalga oshiralayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, talaba-yoshlarni ezgu maqsadlarga ilhomlantirish, adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish, ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish maqsadini ko'zlaydi.

Shu jumladan, talabalar-yoshlar o'rtaida atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng targ'ib qilish, ularning adabiyotga qiziqishlarini yanada oshirish, ularga o'z iqtidorlarini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish hamda ularni rag'batlantirish maqsadida tashkil etiladi.

III.Tanlovni tashkil etish

3. Tanlov (*tashkilotchi*) Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi tomonidan tashkil etiladi. Tanlovda san'at oliygohlaridan tashqari Respublikadagi barcha oliy ta'lif muassasalarining talabalaridan tashkil topgan jamoalar ishtirok etishlari mumkin.

4. Tanlovni tashkil etish va uni o'tkazish mas'ul tashkilotlarning vakillaridan shakllantirilgan Respublika tashkiliy ishchi guruh hamda hududlardagi oliy ta'lif muassasalarining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektorlari zimmasiga yuklatiladi.

5. Tanlovda ishtirok etuvchi jamoa a'zolari 12 nafargacha tarkibda shakllantiriladi.

IV.Tanlovni o'tkazish tartibi

6. Tanlov to'rt bosqichda o'tkaziladi.

7. Tanlovning **1-bosqichi** oliy ta'lif muassasasiagi fakultetlar jamoalari o'rtaida, **2-bosqichi** Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan oliy ta'lif muassasalari o'rtaida, **3-mintaqaviy** va **4-respublika** bosqichi. Barcha bosqichlarini o'tkazish muddatlari Respublika tashkiliy ishchi guruhi tomonidan belgilanadi va oliy ta'lif muassasalariga vazirlikning xati orqali ma'lum qilinadi.

8. Tanlovning 1, 2 va 3-bosqichlarida har bir guruh va mintaqadan Hakamlar hay’ati xulosasiga ko‘ra faqat 1 tadan jamoaga keyingi bosqichda ishtirok etish uchun yo‘llanma beriladi.

9. Mintaqaviy saralash bosqichida respublika bo‘ylab 5 ta mintaqa doirasida jamoalar o‘zaro kuch sinashadi.

10. Hududlarda tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha hududiy tashkiliy ishchi guruh tarkibiga hududdagi oliy ta’lim muassasalari, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hududiy bo‘limlari, madaniyat va san’at sohasi vakillaridan iborat mas’ul xodimlar (*kelishuv asosida*) kiritilishi mumkin.

V. Tanlov shartlari va baholash mezonlari

11. Tanlov quyidagi 3 ta shart asosida o‘tkaziladi:

1-shart. “Adib hayoti” Adiblar xiyobonida o‘rnatilgan atoqli shoir va adiblarning haykallari siymolari tasvirlangan, ushbu adiblardan 1 nafarini jamoalar o‘zi tanlagan holda hayoti va ijodini chuqur o‘rganish, ularning ibratli umr yo‘llarini mukammal ko‘rsata olish ko‘rgazmali taqdimot shaklida namoyish etishlari shart.

Ushbu shartga 10 daqiqa vaqt beriladi va 10 ballik tizimda baholanadi.

2-shart. “Tezkor savol-javob”

Jamoalarga Hakamlar hay’ati tomonidan Adiblar xiyobonida haykallari o‘rnatilgan atoqli shoir va adiblarning hayoti va ijodidan 10 ta savol, o‘ylash va javob berish uchun jamoaga har bir savol uchun 30 soniyadan vaqt ajratiladi. Respublika ishchi guruh tomonidan savollar tuziladi va joylarga yetkaziladi.

Savollarga to‘g‘ri, aniq va qisqa, ravon nutqda jamoaviy javob beriladi.

Ushbu shart 0.5 ballik tizimda jami 5 ballda baholanadi.

3-shart. “Adiblar hayoti va ijodidan teatrlashtirilgan kompozitsiya”

“Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz” Yurtboshimizning shu so‘zlaridan kelib chiqib, qatag‘on qurbanlari bo‘lgan shahidlar, adiblar, shoirlar hayotining real voqeliklarini xalqimizga yetkazib berishimiz kerak, shoirlar, adiblar hayotidan bir kun, yoki ularning hayotidan ibrat bo‘ladigan voqeliklarni teatrlashtirilgan sahna orqali yoshlarimizga yetkazib berish, ularda vatanparvarlik tuyg‘ularini shu orqali yanada shakillantirish. kiyim, rekvizit, dikoratsiya va boshqa vositalardan foydalanish imkoniyati hisobga olinadi. (*Ushbu shartda adiblar xiyobonida haykallari o‘rnatilgan atoqli shoir va adiblarning hayoti va ijodi hamda haykallari o‘rnatilmagan barcha atoqli shoir va adiblarning ijodidan ham teatrlashtirilgan kompozitsiya ijro etish mumkin*).

Ushbu shartga 30 daqiqa gacha vaqt beriladi.

Quyida keltirib o‘tilgan shart sahnada ijro etilgan tanlangan asarning badiiy-g‘oyaviy talqini va yechimi, sahna bezagi, musiqiy ifodasi va ijrochilarning mahorat darajasini etiborga olib 10 ballik tizimda baholanadi.

Tanlovda oldingi yillari ishtirok etib 1-o‘rinni egallagan jamoa (*1 marotaba*) kiyingi mavsum bellashuvlarida ishtirok etmaydi.

VI. Baholash komissiyasi

12. Tanlovni yuqori saviyada o'tkazish maqsadida Tashkiliy ishchi guruh shakllantiriladi.

13. Tashkiliy ishchi guruhga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

tanlovni sifatli savollar bilan ta'minlash;

savollarning maxfiyligini kafolatlash;

tanlovni Nizom talablariga asosan odilona baholash;

14. Tanlovda jamoalarning ballari teng kelib qolgan taqdirda Hakamlar hay'ati tomonidan qo'shimcha 2-shart asosida savol beriladi va g'olib jamoa aniqlanadi.

VII. G'oliblarni taqdirlash

15. Tanlovning 1-bosqichida ishtirok etgan barcha jamoalarga oliv ta'lim muassasasining sertifikatlari topshiriladi.

16. Tanlovning 2-bosqichida 1-, 2- va 3-o'rinni qolgan kiritgan jamoalarga oliv ta'lim muassasasining diplomi va faol ishtirok etgan jamoalarga faxriy yorliqlari topshiriladi.

17. Tanlovning 3-mintaqaviy bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan jamoa a'zolari ishtirok etayotgan ta'lim muassasasi tomonidan, ta'lim muassasasining byujetdan tashqari mablag'lari hisobidan 1 donadan planshet hamda diplom, faxriy yorliqlar bilan taqdirlanadi.

18. Respublika yakuniy final bosqichida Hakamlar hay'ati xulosasi hamda Respublika tashkiliy qo'mita raisi bayonnomasiga asosan 1-, 2-, 3-, 4- va 5-o'rinni qo'lga kiritgan g'olib bo'lgan jamoalar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan vazirlikning oliv ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan quyidagi tartibda:

1 - o'rinni – 40 million so'm,

2 - o'rinni – 25 million so'm,

3 - o'rinni – 20 million so'm,

4 - o'rinni – 10 million so'm,

5 - o'rinni – 5 million so'm pul mukofotlari bilan taqdirlanadi.

Tanlovni final bosqichini yuqori saviyada tashkil etgan tashkilotchi (Respublika tashkiliy ishchi guruh) mas'ul xodimlari asosiy ish joylaridan mehnatga haq to'lashning 10 barobari miqdorida rag'batlantirilishi mumkin.

VIII. Yakuniy qoidalar

19. Davlat va nodavlat tashkilotlari tanlovda homiylik qilishlari mumkin.

20. Tanlovning Nizom talablari asosida ijrosini nazorat qilish Respublika tashkiliy ishchi guruh zimmasiga yuklatiladi.

21. Tanlovga Respublika tashkiliy ishchi guruhi tomonidan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

22. Mintaqaviy va yakuniy bosqichda Hakamlar hay'ati a'zolari Respublika tashkiliy ishchi guruh tomonidan belgilanadi hamda xizmat safari bilan bog'liq sarf-xarajatlar xodimning asosiy ish joyidan qoplanadi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining
2024-yil "3" - oktabrdagi 31-9/9 -son qaroriga
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining
2024-yil "9" - oktabrdagi -son qaroriga
3-ilova 09-03/854

**Oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlari o'rtasida, yoshlarni tarixiy
tafakkurini oshirishga qaratilgan "Yurtim qadriyatları" ko'rik-tanlovi
NIZOMI**

Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi (*ta'lim yo'nalishi musiqa ta'limi va aktyorlik san'ati bo'lмаган*) barcha talaba-yoshlar o'rtasida "Yurtim qadriyatları" ko'rik-tanlovini (bundan keyingi o'rinnlarda Tanlov – deb yuritiladi) o'tkazish tartibini belgilaydi.

Tanlovning maqsad va vazifalari

2. Tanlovdan ko'zlangan maqsad talaba-yoshlarning o'qishdan bo'sh vaqtlanini mazmunli o'tkazish, shuningdek, yoshlarni milliy va umum insoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy va ma'naviy qadriyatlarimiz, an'ana, urf-odat, milliy san'atimiz bilan yaqindan tanishtirish, Yurtimizning tarixi va bugungi kuni hozirgi kunda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan yoshlarimizni xabardor qilish, Jadidlarimiz hayotini chuqur o'rganish, yoshlarni tarixiy tafakkurini oshirish orqali oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilishdan iborat.

Tanlovni tashkil etish va o'tkazish

3. Tanlov (*tashkilotchisi*) Oliy ta'lim fan va innovatsialar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi tomonidan tashkil etiladi. Tanlovda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan oliy ta'lim muassasalarining 10 nafargacha talaba-yoshlaridan tashkil topgan terma jamoalari ishtiroy etadi.

4. Tanlovni tashkil etish va uni o'tkazish, Respublika tashkiliy ishchi guruhi hamda oliy ta'lim muassasalarining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektorlari zimmasiga yuklatiladi.

5. Tanlovda ishtiroy etuvchi jamoalar oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba-yoshlaridan iborat tarkibda shakllantiriladi.

6. Tanlov 4 bosqichda tashkil etiladi.

1-fakultetlararo bosqich, **2-hududiy** bosqich (Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda hududiy, Toshkent shahrida tumanlararo yoki guruh), **3 – yarim final** bosqich hamda **4 – final** bosqichi.

barcha bosqichlarini o'tkazish joyi va muddatlarini Respublika tashkiliy ishchi guruhi tomonidan sanasi aniq belgilanadi va oliy ta'lim muassasalariga vazirlikning xati orqali ma'lum qilinadi.

7. 1-fakultetlararo bosqichi bo'lib o'tgandan kiyin hududdagi oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'tkaziladigan hududiy bosqichiga ishtiroy etishi uchun

jamoalar vazirlikning xati orqali respublika ishchi guruhi tomonidan belgilangan manzilga ariza yuboradilar. Ariza yubormagan oliy ta'lim muassasasi tanlovda ishtirok etmaydi.

8. Tanlovnинг 1, 2, 3-bosqichida Hakamlar hay'ati xulosasiga ko'ra har bir guruhdan faqat 1 tadan jamoa keyingi bosqich uchun yo'llanmani qo'lga kiritadilar.

9. Final bosqichida jami 5 ta jamoa ishtirok etadi. Final bosqichda ishtirok etib, 1-o'rinni egallagan jamoa keyingi yilgi (1 mavsum) bellashuvlarda ishtirok etmaydi, shuningdek, tanlovnинг keyingi mavsum final bosqichi tanlovda g'olib bo'lgan jamoa hududida kelishuv asosida yoki Respublika tashkiliy ishchi guruhi tomonidan belgilangan joyda tashkil etilishi mumkin.

10. Tanlovnинг yarim final va final bosqichi Hakamlar hay'ati tarkibi Respublika tashkiliy ishchi guruhi tomonidan belgilanadi.

Tanlov shartlari va baholash me'zonlari

11. Tanlov 3 ta shart asosida baholanadi va g'oliblar aniqlanadi.

1-shart. Milliy an'ana, qadriyat va urf odatlar – O'zbek millatiga xos bo'lgan (*masalan, bolani beshikka solish, unashtrish, milliy o'yinlar chillaki, "Beshtosh", "Oq terakmi, ko'k terak", aytishuvlar va hokazo boshqa qadriyat, urf-odatlар*) milliy qadriyatlarimizga mansub qadimgi urf-odatlarga asoslangan teatralni kompozitsiyalar namoyish etiladi. Ushbu shartga 30 daqiqagacha vaqt beriladi va 10 ballik tizimda baholanadi.

2-shart. “Kompozitsion musiqiy chiqishlar” – ishtirok etayotgan jamoaning o'z hududiga mos bir nechta milliy raqs va kuy qo'shiq, musiqiy bezaklarga ega bo'lgan kompozitsion jamoaviy sahna chiqishlari (*milliy musiqa asboblaridan ishtirokchilar foydalana olishlari va sahnada foydalanishlari jamoaga ustunlik beradi*). Ushbu shart uchun 10 daqiqagacha vaqt beriladi va 10 ballik tizimda baholanadi.

3-shart. “Jadidlar jasorati – millatimiz faxri” – Ushbu shart savol-javob sharti bo'lib **Jadidlar hayoti va ijodidan** jamoalarga bir vaqtning o'zida 10 ta savol beriladi va o'ylash uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. Har bir savol 0,5 balldan jami 5 ballik tizimda baholanadi.

Baholash komissiyasi va baholash me'zonlari

12. Tanlovnинг yarim final va final bosqichi adolatli baholanishi uchun Respublika tashkiliy ishchi guruhidan 1 nafar xodim Hakamlar hay'ati tarkibida ishtirok etadi.

13. Tanlangan musiqalarning, kiyim, rekvizitlarning milliylikga mosligi, ijrochilarning mahorati, ovoz imkoniyatlari, urf-odatlarning bir-biriga bog'liqligi, yaxlitlik, sahnaga olib chiqilgan an'ana, qadriyat va urf-odatlarning bog'lanishi, jamoani umumiy birlikda namoyon bo'lishi, raqs va kuy qo'shiq, musiqiy bezaklar mahorat bilan ijro etilganligi inobatga olinib baholanadi.

14. Berilgan vaqtidan o'tib ketilgan holatda har-bir daqiqa uchun bir balldan jarima ballari e'lon qilinadi.

15. Tashkiliy ishchi guruhiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

tanlovniz talablariga asosan odilona baholanishini nazoratga olish;
tanlovda fors-mojor holatlarini belgilangan tartibda adolatli hal etish;
savol-javob mahfiylici kafolatlanadi.

16. Tanlovda jamoalarning ballari teng kelib qolgan taqdirda Hakamlar hay'ati tomonidan 3-shart asosida Jadidlar hayoti va ijodidan qo'shimcha savollar beriladi va g'olib jamoa aniqlanadi.

17. Hakamlar hay'ati tomonidan belgilangan o'rirlar yuzasidan izoh beriladi. Qabul qilingan qarorni muhokama etishga yo'l qo'yilmaydi.

G'oliblarni taqdirlash

18. Tanlovning 3-yarm final bosqichida ishtirok etgan jamoalarning har bir ishtirokchilariga oliy ta'lim muassasasi tomonidan budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1 barobari miqdorida pul mukofotlari beriladi.

19. Tanlovning final bosqichida ishtirok etgan Hakamlar hay'ati (OTMdA faoliyat olib borgan taqdirda) a'zolariga oliy ta'lim muassasasining budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 5 barobari miqdorida bir martalik moddiy rag'batlantiriladi.

20. **"Yurtim qadriyatlari"** tanloving yakuniy 4-final bosqichida 1-, 2- va 3-o'rinni egallagan g'olib jamoalar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan vazirlikning oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan quyidagi tartibda:

1 - o'rinni – 50 million so'm,

2 - o'rinni – 30 million so'm,

3 - o'rinni – 20 million so'm pul mukofotlari bilan taqdirlanadi.

Tanlovni final bosqichini yuqori safiyada tashkil etgan tashkilotchi (Respublika tashkiliy ishchi guruh) mas'ul xodimlari asosiy ish joylaridan mehnatga haq to'lashning 10 barobari miqdorida rag'batlantirilishi mumkin.

Shuningdek, hamkor tashkilotlarning diplom, faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishi mumkin.

Yakuniy qoidalar

21. Jamoalar tomonidan sahnalashtirilgan sahma asarlari nizom talablariga mos kelmagan hayosizlikni targ'ib qiluvchi chiqishlar ijro etilgan taqdirda Hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan jarayon to'xtatiladi va natijalari bekor qilinib tanlovdan chetlashtiriladi.

22. Sahnada, sahma madaniyatiga amal qilmagan jamoa a'zolariga Hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan dalolatnomalardan tuziladi hamda ushbu jamoa a'zosi bo'lgan oliy ta'lim muassasasi keyingi yilgi tanlovda ishtirok etmaydi va mas'ul rahbarlariga chora ko'rildi.

23. Davlat va nodavlat tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari tanlovda homiylik qilishlari mumkin.

24. Tanlovga Respublika tashkiliy ishchi guruhi tomonidan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

25. Tanlovda Hakamlar hay'ati a'zolarining xizmat safari bilan bog'liq sarf-xarajatlar xodimning asosiy ish joyidan qoplanadi.